

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING TRANSFORMATSIYASIDA ETNOMADANIY JARAYONLAR

Nurboyev Q.A.

TDIUSF o'qituvchisi, qurbonn@inbox.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Samarqand hududidagi etnomadaniy jarayonlarning ayrim jihatlari eroniyar etnografik guruhi misolida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Samarqand, millatlararo totuvlik, etnik bag'rikenglik, mahallalar, milliy-madaniy markazlar.

ETHNOCULTURAL PROCESSES IN THE TRANSFORMATION OF SOCIAL AND HUMANITARIAN SCIENCES

Annotation. This article describes some aspects of ethnocultural processes in the Samarkand region using the example of the Iranian ethnographic group.

Key words: Samarkand, interethnic harmony, ethnic tolerance, neighborhoods, national and cultural centers.

ЭТНОКУЛЬТУРНЫЕ ПРОЦЕССЫ В ТРАНСФОРМАЦИИ СОЦИАЛЬНЫХ И ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Аннотация. В данной статье на примере иранской этнографической группы описываются некоторые аспекты этнокультурных процессов в Самаркандском регионе.

Ключевые слова: Самарканд, межэтническая гармония, этническая терпимость, махалля, национальные и культурные центры.

Jahonning turli davlatlarida aholining yashashi, ta'lim olishi, mehnat qilishi va o'z iqtidorini namoyish etishi kabi hayotiy va tabiiy haq-huquqlari turli darajada poymol etilayotgan bir davrda O'zbekistonda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bag'rikenglik tamoyili asosida tinch-totuv yashayotganligi millatlararo munosabatlar, diniy bag'rikenglik jabhalarida to'g'ri islohotlarni amalga oshirayotganligi dalolatidir.

2019-yil 15-noyabr PF-5876-son "Millatlararo munosabatlar sohasida O'zbekiston respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 17-noyabrda qabul qilgan "Millatlararo totuvlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni ta'minlash bo'yicha jamoatchilik kengashlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 723-son Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2025-yil 19-martdagi PF-52-son "Umummilliy totuvlik va xorijdagi vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlashni yangi bosqichga olib chiqishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, "O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi faoliyatini samarali tshkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-115-sonli qarori kabi normativ-huquqiy hujjatlarning qabul qilinganligi bu sohadagi islohotlarning huquqiy asosini tashkil etmoqda.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi 74-maqsadida jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashda Milliy madaniy markazlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish, madaniy faoliyat sohasidagi davlat siyosatini amalga oshiruvchi organlar tarkibiga Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasini qo'shish hamda uning madaniy faoliyat sohasidagi vakolatlarini belgilashni nazarda tutuvchi qonun loyihasini ishlab chiqish belgilangan. [1]

“Etnik bag'rikenglikni shakllantirish – millatlararo mojarolarning oldini olish va bartaraf etishning eng to'g'ri yo'lidir. Bu jarayonda ko'p xil madaniyatlarni birlashtiruvchi yagona makonni vujudga keltirishning ahamiyati kattadir. Buning uchun avvalo millatlararo muomala madaniyatini tarbiyalash zarurki, quyidagilar ushbu madaniyatning oddiy unsurlari hisoblanadi: “etnik indiferentlik” (beparvolik), ya'ni shaxslar o'rtasidagi muomalada milliy omilni e'tiborga olmaslik (alohida zarur holatlar bundan mustasno); boshqa millat kishilari bilan munosabatda mulohazali bo'lish; har bir kishi har qanday dunyoqarash masalasida o'z nuqtai nazariga ega bo'lish, o'z nuqtai nazarini aytish huquqiga ega ekanligi; milliy, etnik muammolar xususidagi muhokamada mazkur masala yuzasidan o'ziga ega bo'lgan bilimlar hajmigagina tayanish; inson o'zi yashab turgan etnik guruhning marosimlari, rasm-rusumlari, urf-odatlarini bilishi zarurligi; til masalasi – millatlararo muomala madaniyatining eng muhim jihatlaridan biri ekanligini esda tutish”. [2: 144-145]

Hozirgi vaqtda Samarqand viloyati hududida 90 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Samarqand viloyatining etnik tarkibi O'zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlaridan o'zining bir qancha xarakterli xususiyatlari bilan farq qiladi. Masalan, viloyatda respublikadagi jami o'zbeklarning 12,5 %, tojiklarning 22,4 %, yahudiylarning 12,3 %, ozarbayjonlarning 14,6 %, turkmanlarning 17,4 %, armanlarning 24,2 %, eronilarning 78,5 %i yashaydi. [3:31] Ma'lumotga e'tibor qaratilsa, Samarqandda O'zbekistondagi eroniy etnografik guruhining asosiy qismi istiqomat qiladi. Samarqand eroniylar etnografik guruhi bugungi kunda 50ga yaqin mahallalarda yashab kelmoqda. Aholi tarkibida eroniylar salmog'i 80% dan 100%gacha tashkil etuvchi Samarqand shahar mahallalari 15 ga yaqin bo'lib, ular quyidagilardir: “Ahillik” (2011-yilda tashkil topgan), “Beklar” (1929-yilda tashkil topgan), “Bog'ishamol” (1985-yilda tashkil topgan, avval “Do'mqishloq” deb atalgan), “Bo'ston” (1975-yilda tashkil topgan), “Yuqori Xo'jasahat” (1993-yilda tashkil topgan), “O'rta Xo'jasahat”, (1993-yilda tashkil topgan), “Quyi Xo'jasahat” (2014-yilda tashkil topgan), “Kattaqo'rg'on” (1926-1930-yillarda tashkil topgan), “Panjob” (2017-yilda tashkil topgan), “Madadkor” (2011-yilda tashkil topgan, avval “Xaymar” deb atalgan), “Mehrobod” (2012-yilda tashkil topgan, avvalgi nomi “Ajdamahalla”), “Al-Xorazmiy” (2016-yilda tashkil topgan, avvalgi nomi “Izvoshchilar”), “Terakzor” (1976-yilda tashkil topgan, avvalgi nomi “Kulangi qishloq”), “Bog'isaroy” (1991-yilda tashkil topgan, avvalgi nomi “Saroy qishloq”, keyin esa “M.Mirsharopov” bo'lgan) Samarqand tumanidagi “Pulimug'ob” (1926-yilda tashkil topgan), Toyloq tumani “Xonchorbog” (2006-yilda tashkil topgan,

avvalgi nomi “Sochakipoyon-2” bo‘lgan) va “Beklar” (2006-yilda tashkil topgan, avvalgi nomi “Sochakipoyon-1” bo‘lgan) mahalla fuqarolar yig‘inlaridir.

O‘zbekiston Respublikasida turli millat va elatlarning madaniyati, urf-odatlarining himoya qilinishi, rivojlantirilishida milliy-madaniy markazlarning roli juda ahamiyatlidir. Samarqand viloyatida ro‘yxatdan o‘tgan milliy-madaniy markazlar soni 11 tani tashkil qiladi. Ular millatlararo totuvlik, bag‘rikenglik g‘oyalarini targ‘ib qilish borasida samarali faoliyat olib bormoqda. [4] Panjob madrasasi binosida 1990-yil 10-mart kuni etnografik guruh – eroniylar milliy-madaniy markazi ish boshladi. 1994-yilning may oyida “Panjob” milliy-madaniy markazi madaniy-ma’rifiy markazga aylantirildi. [5:317] 2003-yilda bu markaz faoliyatini to‘xtatgan. 2000-yilda tashkil etilgan “O‘zbekiston-Eron” do‘stlik jamiyatining Samarqand bo‘limi 2003-yildan buyon madaniy-ma’rifiy markaz vazifasini ham bajarib kelmoqda. Bugun Samarqand shahridagi “Panjob” madrasasida “O‘zbekiston-Eron” do‘stlik jamiyati (raisi Ravshan G‘ulomov) tashabbusi va mahalliy tadbirkorlarimizning qo‘llab – quvvatlashlari bilan atrof mahallalardagi o‘quv muassasalarida faoliyat olib borgan va ayni vaqtda o‘z mehnat faoliyatini olib borayotgan o‘qituvchilar, ilm-ma’rifat, san’at, sport va turli sohalarda ustozlik qilib xalqning hurmatiga sazovor bo‘lgan ustoz va murabbiylar uchun bayramlar tashkil etilmoqda. Bayram tantanalarida taklif etilgan mehmonlar bayram dasturxonini atrofida xalqimizning suyuqli san’atkorlari va bolajonlarimizning sahna chiqishlaridan bahramand bo‘ladilar. Navro‘z bayrami munosabati bilan har yili “O‘zbekiston-Eron” do‘stlik jamiyati tomonidan bayram katta konsertlari va bayram dasturxonlari tashkil etilib kelinmoqda.

Yangi O‘zbekistonda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining faoliyatini rivojlantirish orqali mahallada istiqomat qilayotgan turli millat va elatlar vakillariga millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik g‘oyalarini singdirishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda Samarqandda yashayotgan eroniylar etnografik guruhining boshqa millat vakillari bilan tinch-totuv yashashlarining negizi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022 yil 28 yanvar. PF-60-son.
2. Муртазаева Р. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатлар ва бағрикенглик. Ўқув қўлланма. Т.: “Университет”, 2007.
3. Кадиров М.А. Самарқанд вилояти географияси. Монография. Т.: “lesson-press”, 2019.
4. <https://zarnews.uz/uz/post/samarqand-dostlik-chorrahasidagi-shahar>
5. Xolov H. Vatan yagonadir, Vatan bittadir. Samarqand.: “MAHORAT”, 2024.